



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PSIXOLOGIK O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Norqulova Ma'mura Husniddin qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası
assistent o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik o'yin texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari tahlil qilinadi. Psixologik o'yinlar bolalarning emotsional holatini tartibga solish, ijtimoiy muomala ko'nikmalarini shakllantirish va psixik jarayonlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Maqolada psixologik o'yinlarning turlari (diagnostik, koreksion, relaksatsion, kommunikativ va rolli o'yinlar) tavsiflanib, ulardan foydalanishning pedagogik va amaliy usullari yoritilgan. Shuningdek, amaliy misollar asosida bolalarning shaxsiy rivojlanishida o'yinlarning o'rni ko'rsatib berilgan. Maqola psixologlar, maktabgacha ta'lim pedagoglari hamda ota-onalar uchun foydali ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar. maktabgacha ta'lim, psixologik o'yin texnologiyalari, bolalar psixologiyasi, diagnostik o'yinlar, koreksion usullar, relaksatsiya, emotsional rivojlanish, kommunikativ, o'yinlar, shaxsiy rivojlanish, o'yin terapiyasi, pedagogik yondashuv, psixologik xizmat.

Аннотация.

В данной статье будут проанализированы эффективные методы использования психологических игровых технологий в дошкольных образовательных организациях. Психологические игры признаются важным инструментом в регуляции эмоционального состояния детей, формировании навыков социального общения, развитии их психических процессов. В статье описаны виды психологических игр (диагностические, коррекционные, релаксационные, коммуникативные и сюжетно-ролевые) и освещены педагогические и практические методы их использования. Также на



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

практических примерах показана роль игр в личностном развитии детей. В статье содержатся полезные научно-практические рекомендации для психологов, педагогов дошкольного образования, а также родителей.

Ключевые слова. дошкольное образование, психологические игровые технологии, детская психология, диагностические игры, коррекционные методы, релаксационные, эмоциональное развитие, коммуникативные, игры, личностное развитие, игровая терапия, педагогический подход, психологическая служба.

Annotation.

This article analyzes effective methods of using psychological game technologies in preschool educational organizations. Psychological games are recognized as an important tool in the regulation of the emotional state of children, the formation of social interaction skills and the development of their psychic processes. The article describes the types of psychological games (diagnostic, Correctional, relaxational, communicative and role-playing games) and covers pedagogical and practical methods of their use. Also, on the basis of practical examples, the role of games in the personal development of children is shown. The article contains useful scientific and practical recommendations for psychologists, preschool educators, as well as parents.

Keywords. pre-school education, psychological game technology, child psychology, diagnostic, games, koreksion methods in relaksasiya, emotional development, communicative, games, personal development, play therapy, pedagogical approach, psychological services.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan muhim bosqichga aylangan. Bolaning intellektual, ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanishida o'yin asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologik o'yin texnologiyalari yordamida bola ruhiy holatini barqarorlashtirish, uning individual xususiyatlarini aniqlash, muomala va xulq-



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Ushbu maqolada psixologik o'yin texnologiyalarining mohiyati, turlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ulardan foydalanish usullari yoritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bolalik – bu o'yin orqali dunyoni anglash, o'zligini ifodalash, o'rganish davri. O'yin esa nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki psixologik rivojlanishning eng muhim vositasidir. Ayniqsa, psixologik o'yin texnologiyalari bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, stressni kamaytirish va ijobiy muhit yaratishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jarayonlari (xotira, diqqat, fikrlash, nutq) hali shakllanish bosqichida bo'lganligi uchun o'yinlar orqali ta'sir etish ularning tabiiy rivojlanishiga mos keladi. Shu bois, ushbu maqolada psixologik o'yin texnologiyalarining amaliy ahamiyati va maktabgacha ta'lim muassasalarida ulardan foydalanish usullari keng yoritiladi.

Psixologik o'yin texnologiyalarining nazariy asoslarini keltiramiz.

Psixologik o'yin texnologiyalari – bu bolalar bilan ishlash jarayonida ularning psixik holatini o'rganish, ijtimoiy-emosional muammolarni bartaraf etish, shuningdek, tarbiyaviy va korreksion maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan maxsus metodik usullardir.

Psixologik o'yinlar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Diagnostik funksiyasi (bola haqida ma'lumot olish)
- Koreksion funksiyasi (kamchiliklarni tuzatish)
- Tarbiyaviy funksiyasi (ijtimoiy qoidalarni o'rgatish)
- Rivojlantiruvchi funksiyasi (fikrlash, xotira, diqqat, nutq)

Ushbu texnologiyalar asosida Lev Vygotskiy, Zh. Piaget, A. Leontyev, D. Elkonin kabi olimlarning ilmiy ishlari yotadi. Ular bolalar ongining rivojida o'yinning asosiy vosita sifatida muhimligini ilmiy asoslab bergan.

Psixologik o'yin texnologiyalari — bu bolalar bilan ishlashda psixologik muammolarni aniqlash, bartaraf etish va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida qo'llaniladigan, maxsus metodikalarga asoslangan o'yin faoliyatidir. Bu texnologiyalar quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayanadi:



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

L.S. Vygotskiy o'yin orqali bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishini asoslab bergan.

D.B. Elkonin o'yinlarni bolaning tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sifatida talqin qilgan.

A.N. Leontyev faoliyat nazariyasiga tayanib, o'yin bola uchun tabiiy ehtiyojga aylanishini ta'kidlagan.

Psixologik o'yinlar quyidagi funksiyalarni bajarishini yuqorida ko'rib o'tdik, demak, diagnostik: bolaning emotsional va intellektual holatini aniqlash, korreksion: psixik muvozanatni tiklash, xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish, rivojlantiruvchi: fikrlash, nutq, tasavvur va empatiyani kuchaytirish, tarbiyaviy: ijtimoiy me'yori va qoidalarni o'rgatish kabidir.

Psixologik o'yin turlarini keltiramiz. Bu esa, maktabgacha ta'lim tashkilotida foydalaniladigan psixologik o'yinlar bir necha toifalarga bo'linadi. Masalan:

- Diagnostik o'yinlar – bolaning psixologik holati, emotsional fonini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Misol: “Men qandayman?”, “Rangli hislar”, “Kayfiyat sharlarini top”

- Korreksion va rivojlantiruvchi o'yinlar – muomala, diqqat, xotira, fikrlash kabi psixik jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Misol: “Sehrli ayna”, “Kim nimani his qildi?”, “Emotsiyalar qutisi”

- Relaksatsion o'yinlar – bolani tinchlantirish, stressni kamaytirish uchun.

Misol: “Ob-havo qanday?”, “Kapalak parvozi”, “Yumshoq bulutcha”

- Rol o'yinlari (dramatik o'yinlar) – ijtimoiy rollarni bajarish, empatiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Misol: “Do'konda”, “Shifokor va bemor”, “Mehmon kutamiz”

- Kommunikativ o'yinlar – bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

Misol: “Tanishing – bu menman!”, “Ismingni ayt va harakatni bajar”

Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik o'yinlar bir nechta asosiy guruhlariga bo'linadi.

1. Diagnostik o'yinlar

Bolaning ruhiy holati, emotsional fonini aniqlashga xizmat qiladi.

Masalan: “Ranglar orqali kayfiyat”, “Kim qanday o'zini tutadi?”, “His-tuyg'ular tarozisi”.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

2. Korreksion (tuzatuvchi) o'yinlar

Xulq-atvordagi muammolar, qo'rquvlar, agressivlikni kamaytirish uchun qo'llaniladi.

Masalan: "Sehrli quduq", "Hislar do'koni", "Qo'rquv qutisi".

3. Rivojlantiruvchi o'yinlar

Diqqat, xotira, tafakkur, nutq va ijodkorlikni oshirishga qaratilgan.

Masalan: "Qayerda yashirinding?", "Xotira maydoni", "Aql charxi".

4. Relaksatsion (tinchlantiruvchi) o'yinlar

Stress va zo'riqishni kamaytirish, ichki muvozanatni tiklash uchun.

Masalan: "Bulutlar osmonda", "Kapalaklar raqsi", "Sehrli nafas olish".

5. Kommunikativ va rolly o'yinlar

Ijtimoiy muommalarni o'rganish, do'stlik, hamkorlik, empatiya kabi hislarni rivojlantirish.

Masalan: "Shifokor va bemor", "Do'stlik daraxti", "Ish joyida".

Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik o'yin texnologiyalarini qo'llash usullari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik o'yin texnologiyalaridan foydalanishda bir nechta usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, tashkiliy-uslubiy yondashuvda: har bir yosh guruhiga mos o'yin ssenariylari tuzish, o'yinlarning didaktik, psixologik va pedagogik maqsadini aniq belgilash, o'yin muhitini to'g'ri tashkil etish: qulay, xavfsiz va erkin atmosfera yaratish.

Pedagog va psixolog hamkorligida: guruh psixologi pedagoglarga metodik tavsiyalar beradi, o'yinlar o'tkazilishidan avval bolaning psixologik holati tahlil qilinadi, zaruratga qarab individual yoki kichik guruh shaklida o'yinlar tashkil etiladi.

Integratsiyalashgan yondashuvda: o'yinlar mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtiriladi (masalan, rasm chizish, qo'shiq aytish, raqs), bolalarning qiziqishlari va temperamentiga mos metodlar tanlanadi, darsdan tashqari tadbirlarda (bayramlar, sayrlar) ham o'yin elementlari qo'llaniladi.

Davriylik va tizimlilikda esa, o'yinlar muntazam o'tkazilishi kerak (haftasiga 2–3 marta), dastur asosida olingan natijalarga qarab o'yinlar o'zgartirilib yoki murakkablashtirib boriladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Tashkiliy jihatlardan qarasak, o'yinlar bolaning yoshiga, qiziqishlariga va shaxsiy xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Guruhdagi har bir bola e'tiborga olinadi, passiv ishtirokchilar alohida rag'batlantiriladi. O'yin muhitining ijobiy va xavfsiz bo'lishi muhim.

O'yin jarayonini tashkil qilishda, boshlanish qismida bolalarni o'yin qoidalari bilan tanishtirish, o'yin davomida pedagog/psixolog yo'naltiruvchi rolda bo'lishi, yakunda o'yin tahlil qilinib, bolalarning his-tuyg'ulari muhokama qilinadi.

O'yin samaradorligini baholashda, kuzatuv, suhbat, surat, rasm tahlillari orqali natijalar baholanadi, bolaning emotsional va ijtimoiy holatidagi o'zgarishlar qayd etiladi.

Amaliy misollar va tavsiyalarni keltirib o'tishimiz joiz deb topdik.

O'yin: "His-tuyg'ular palitrasi"

Maqsad: Bolalarni asosiy emotsiyalarni anglash va ifodalashga o'rgatish.

Asboblari: Rasmi kartochkalar (xursand, g'amgin, qo'rqan, g'azablangan).

Jarayon: Bola suratdagi emotsiyani tanlaydi va uni mimika yoki hikoya orqali ifodalaydi. Boshqa bolalar bu emotsiyani topishga harakat qiladi.

O'yin: "Sehrli doira"

Maqsad: Tinchlantirish, relaksatsiya.

Jarayon: Bolalar aylana bo'lib o'tirishadi, ko'zlarini yumib, "bulutcha" yoki "kapalak" sifatida o'zlarini tasavvur qilishadi. Psixolog ularni ohangdor ovoz bilan boshqaradi.

Mashg'ulot: "Emotsiyalar ajoyiboti"

Maqsad: Bolalarning asosiy his-tuyg'ularni anglash va ifodalash ko'nikmasini rivojlantirish.

Asboblari: Emotsiyalar suratlari, rangli kartochkalar.

Jarayon: Har bir bola suratni tanlaydi va shu hisni ifodalaydi. Boshqalar uni topishga harakat qiladi.

Mashg'ulot: "Yurakdan yurakka"

Maqsad: Empatiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Asboblari: Yurak shaklidagi yostiqlar.

Jarayon: Yurakni qo'lga olgan bola boshqa bola haqida bir ijobiy so'z aytadi va yurakni unga uzatadi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Pedagog va psixolog hamkorligi

Psixologik o'yin texnologiyalarini samarali qo'llashda pedagog va psixolog hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Psixolog bu jarayonda bolalar psixologik tahlilini olib boradi, guruhga individual yondashuvni taklif etadi, pedagogga metodik ko'rsatmalar beradi.

Pedagog esa, o'yinlarni ta'limiy jarayonga integratsiya qiladi, bolaning holatiga real vaqt rejimida baho beradi, ota-onalar bilan aloqa o'rnatadi.

Ota-onalar bilan ishlashda psixologik o'yin texnologiyalarini ham keltirishimiz mumkin.

Psixologik o'yinlar ota-onalar bilan olib boriladigan treninglarda ham samarali vosita bo'la oladi.

Uy sharoitida amalga oshiriladigan o'yinlar ro'yxati beriladi.

Ota-onalarga bolaning psixologik ehtiyojlarini tushunishga yordam beriladi.

Psixologik o'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ular bolalarning his-tuyg'ularini boshqarish, o'zini ifoda etish, boshqalar bilan muomala qilish, stressni yengish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu texnologiyalarni tizimli va ilmiy asosda qo'llash, pedagog-psixolog hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish mumkin.

Psixologik o'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu texnologiyalarni tizimli, bosqichma-bosqich va individual yondashuv asosida qo'llash, pedagog va psixolog o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotskiy L.S. "Bola psixologiyasi"
2. Elkonin D.B. "O'yin faoliyati nazariyasi"
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi metodik tavsiyalari
4. A.N. Leontyev – "Faoliyat, ong va shaxs"
5. Jurnal: "Maktabgacha ta'lim" – 2023-yil sonlari.